

**SHOHRUX MIRZONING TASHQI SIYOSATI (BANGOLA, TIBET, KOLIKUT,
VIJAYANAGAR BILAN ALOQALARI)**

Muqimova Aziza G'ani qizi
JDPU Tarix fakulteti talabasi

„Ovro'poda u(Shohrux) tengi qirollar o'tganda bormi, muarrixlari, siyosatchilari jahonga bong urib, „o'rta asrlardagi demokrat hukmdor“ deb ayyuhannos solgan bo'lardilar“.

Poyon Ravshanov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir temurning o'g'li Xuroson va Movarounnahr hukmdori Shohrux Mirzo davrida chet davlatlar xususan Bangola, Tibet, Kolikut va Vijayanagar bilan madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy aloqalarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar, O'rta Osiyo, Shohrux Mirzo, Dashti Qipchoq, Hindiston, Mirzo Ulug'bek, Hirot, Bangola, Abdurazzoq Samarqandiy, Kolikut, Vijayanagar, Xoja Karimuddin, Xitoy, Shom, Rum, Misr, Yevropa.

Temuriylar sulolasi O'zbekiston balki O'rta Osiyo tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Sulola vakillari orasida Shohrux Mirzo o'zbek davlatchiligi tarixida o'z o'rniga egadir, biroq fikrimizcha „juda oqil, bilimdon, e'tiqodli, davlat arboblari xos yuksak salohiyatga ega bo'lgan Shohrux Mirzo siyosiy va insoniy faoliyatiga hali yetarli baho berilgan emasdek“. Uning yarim asrlik hukmronlik davri murakkab bir tarixiy davrda kechdi.⁶² Shohrux hukmronligi yillarida mamlakatda nisbatan osoyishtalik ta'minlandi va ilm-fan, madaniyat san'at rivoji uchun sharoit yaratildi. Shohrux Mirzo hukmronlik qilayotgan davrda Temuriylar saltanati Yevrosiyoda katta mavqeyga ega bo'lgan, shuningdek Hindiston, Xitoy, Shom, Rum, Misr, Yevropa, Dashti Qipchoq mamlakatlari hukmdorlaridan elchilar kelib turgani ma'lum.⁶³ Shohrux Mirzo uzoq-yaqin mamlakatlar bilan aloqa o'rnatib, faol diplomatik muloqot olib bordi. 1421-yil 6-yanvarda Mirzo Ulug'bek (1394-1449) Buxoroga yo'l oladi va qishlovni Buxoroda o'tkazishga qaror qiladi. Qishlov vaqtida Buxoroga Tibetdan elchilar keladi, Mirzo Ulug'bek elchilarni hurmat bilan qabul qiladi, so'ngida esa barchasiga hurmat ko'rsatib, qaytib ketishlariga ruxsat beradi. Elchilar nima maqsadda kelganligi, muhokamalar markazida aynan qaysi mavzular turganligi bizga ma'lum emas. Sababi elchilarning kelishi haqida Temuriylar davri muarrixlari qisqacha ma'lumot berib o'tadi.⁶⁴ Elchilikning tafsilotlari haqida balki Tibetning o'rta asrlar tarixiga oid manbalarida ham ma'lumot bo'lishi mumkin, lekin hozircha bunisida bizga qorong'u.

⁶² Z. Muqimov, Amir Temur hamda Temuriylar davlati va huquqi, Navro'z-2020; 56-b

⁶³ Z. Muqimov, Amir Temur hamda Temuriylar; 70-b

⁶⁴ Abdurazzoq Samarqandiy, Matlai sadayn va majmai bahrayn I qism, 2008/ 415-b

Mirzo Ulug'bek elchilarni qabul qilgan esada, mamlakatning oliy hukmdori Shohrux Mirzo hisoblangan, Ulug'bek shubhasiz mustaqillikka intilgan, biroq butun imperiyaning jilovi Shohrux Mirzo qo'lida edi.⁶⁵

Shohrux Mirzo hukmronlik yillarida Temuriylar saltanatining Hindiston yarim orolidagi mamlakatlar bilan aloqalari yanada kengayadi, xususan Bangola (hozirgi Bangladesh va unga yondosh yerlar) hukmdori Shamsuddin Ahmadshoh ibn Muhammad (1431-1442) Sulton Shohrux huzuriga elchi yo'llab, Junapur hukmdori Sulton Ibrohim (1400-1440)ning bosqinidan shikoyat qiladi va yordam so'raydi. Shohrux Mirzo esa shayxulislom Xoja Karimuddin Jomiy orqali Junapur hukmdori Sulton Ibrohimga quyidagi mazmunda farmon yuboradi: „Bangola mamlakatiga hujum qilinmasin, aks holda boshiga nima tushsa o'zidan ko'rsin!“. Maktub mazmunidan ogoh bo'lgan Sulton Ibrohim Bangolaga bosqin qilishni to'xtatadi.⁶⁶

1442-yil Shohrux Mirzo Janubiy Hindistonga Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligidagi elchilik hay'atini yo'llaydi. Ushbu elchilikning asl maqsadi Kolikut (hozirgi nomi Kojikode) shahri hukmdoriga Shohrux Mirzo nomi bilan o'qiladigan xutba(juma namozlarida, diniy bayramlarda xatib tomonidan o'qiladigan va'z. Bunda Allohning birligi va Muhammad s.a.v. uning payg'ambari ekanligini yodlab o'qish barobarida podsholik taxtida o'tirgan shaxsning nomi ham tilga olingan. Muayyan podshohning siyosiy hukmronligining e'tirof etilishi uning nomi xutbaga kiritilishi-kiritilmasligi bilan belgilangan)ni yetkazish edi.⁶⁷ Shohrux Mirzo yuborgan farmondan so'ng Junapur hukmdori Bangolaga qiladigan bosqinini to'xtatganini eshitgan Kolikut hukmdori turli sovg'alar bilan o'z vakilini Shohrux Mirzo huzuriga yo'llaydi va „bu bandarda juma va lyd (namoz)larida islom xutbasini o'qiydilar, agar u hazrat ruxsat bersalar (xutbani) u kishining muborak nom va laqablari bilan aziz va sharafli qilinsa" deya arz etadi.⁶⁸ Muarrix „(Kolikut voliysi) ning xabarchisi Bangoladan kelayotgan elchilar bilan birgalikda muborak dargohga yetib keldi. Amirlar uning arza-xat va tuhfarini (Shohruxga) ko'rsatdilar. Uning xabarchisi so'zga usta bir musulmon kishi ekan, suhbat asnosida: «agar onhazrat Kolikut voliysiga nisbatan inoyat ko'rgazsalar va uning uchun maxsus bir elchi yuborsalar, toki elchi borib, <Rabbing yo'liga (kofirlarni) hikmat va yaxshi va'zlar bilan undagin!> (Nahl surasi, 125-oyat) degan oyat talabiga muvofiq uni Islom diniga da'vat qilib, qorong'u dilidagi zulmat va xatkorlik qulfini ochsa, (shoyad) imon nurining shu'lasini va ma'rifat oftobining yorug'ligi uning dili darichasidan kirsas, — bu, albatta, savobli ham to'g'ri ish bo'lur edi», degan so'zlarni aytdi. Hazrat (Shohrux Mirzo) xabarchining so'zini ma'qul topib amirlarga elchi tayin qilishni buyurdi" deya voqeani bayon etadi.⁶⁹ E'tiborli jihati shundaki, Kolikut muarrix ta'biri bilan aytganda „kofirlar qo'l ostidagi shahar bo'lib, dorulharbdir (islom dinida bo'lmagan xalqlar tomonidan idora qilinadigan davlat yoki

⁶⁵ Temur va Ulug'bek davri tarixi, 1997/ 92-b

⁶⁶ Abdurazzoq Samarqandiy, Matlai sadayn va majmai bahrayn II qism, 2008/ 125-126-b

⁶⁷ O'zbek diplomatiyasi tarixidan, 2003/ 97-b

⁶⁸ Abdurazzoq Samarqandiy, Matlai sadayn va majmai Bahrayn, II qism, 2008-y, 126-b

⁶⁹ O'sha asar, 128-b

shahar) " Shaharda bir guruh musulmonlarda bo'lib, ular Shofe'iy mazhabida edi va ularning 2 ta jome masjidi bo'lgan Shohrux Mirzo Kolikut hukmdoriga ot, po'stin, tillado'zi dakala va kulohi navro'zi yuboradi. Somuriy (Kolikut hukmdorlarini unvoni) Abdurazzoq Samarqandiyini qabul qiladi. Elchilar 1443-yil aprelegacha shu yerda bo'lishadi. Kolikut hukmdorining Shohrux Mirzoga elchi yuborib, xutbaga uning nomini qo'shib o'qish tashabbusi bilan chiqadi, bundan maqsad shuki, bu davrda janubiy Hindiston mamlakatlari orasida eng kuchlisi va eng yirigi Vijayanagar bo'lib, fikrimizcha somuriyga Vijayanagar bosqinlarni to'xtatib tura oladigan „homiy" kerak edi, Kolikut hukmdori bu „homiy"ni Sulton Shohrux siymosida ko'radi va shu hisobdan mamlakatda uning nomiga xutba o'qilishi ortidan o'z mamlakatini xavfsizligini ta'minlamoqchi bo'lgan bo'lishi mumkin.⁷⁰ Abdurazzoq Samarqandiy 1443-yil aprelda Vijayanagar mamlakati tomon o'tlanadi, buning sababi shundaki elchilar Kolikutda ekan, Vijayanagar hukmdori Deva Raya II (1422-1446) Kolikut voliysiga elchilarni o'z saltanati tomon yuborishni talab qiladi. Garchi Kolikut hukmdori Deva Raya IIga qaram bo'lmasada biroq undan qattiq qo'rqar edi, shu hisobdan uning talabini bajaradi.⁷¹ Elchilar 1443-yil 30-aprelda Vijayanagar poytaxtiga yetib keladi(o'sha asar, 132-b), hukmdor ularni munosib qarshilaydi. Abdurazzoq Samarqandiy ko'p marotaba saroyga taklif etiladi va hukmdor qabulida bo'ladi. Elchilik hay'ati Vijayanagardan qaytishida ular bilan asli xurosonlik bo'lgan, biroq hozirda shu yerda yashayotgan Vijayanagarning ikki vakili – Xoja Ma'sud va Xoja Muhammad Hirot saroyiga elchilika tayin etiladi. Tug'luqiylar sulolasining (1320-1413) vakili Feruzshoh Tug'luqning nabirasi Fathxon ham ularga qo'shib, o'z elchisi Xoja Jamoliddin yo'llaydi. Yo'l asnosida Xoja Ma'sud Bokanur(Hindiston yarim orolining g'arbi)da vafot etadi(o'sha asar 159-b). Elchilar 1444-yil 15-mart kuni kemaga o'tirib jo'naydilar(o'sha asar, 160-b). Elchilar 1444-yil 26-dekabr kuni Hirotida yetib kelishadi. Elchilar Xoja Muhammad va xoja Jamoliddin Shohrux Mirzo tomonidan katta mamnuniyat bilan qabul qilinadi. Elchilar xoqoni sa'idga 3 dona yoqut va o'nta tuyaga yuk bo'ladigan hind dorivor o'simliklarini taqdim etishadi.„Bular humoyun mizoj(Shohrux)ga juda ma'qul keldi, chunki u mamlakatlardan ikki-uch yuz yillar davomida bu yerga elchi kelganligi haqida hech qayerda so'zlanmagan edi" Sulton Shohrux elchilarni haftada 2 marta qabul qiladi va ular humoyun majlisida ishtirok etishadi. Xoja Jamoliddin Feruzshoh Tug'luqning nabirasi Fathxonning maktubini hukmdor Shohruxga topshiradi. Fathxon maktubida Shohrux mirzodan „meni sultonlar panohi(Shohrux) talab qilib olsalar toki u hazratning davlati barakoti bilan o'zim tug'ilib o'sgan vatanimga yetishsam" deya o'z arzini bildiradi. Shohrux Mirzo uning iltimosiga javoban Vijayanagar hukmdori Deva Raya II ga maktub yo'llaydi, maktubda agarki, hukmdorning qo'lidan kelsa Fathxonni ota yurtiga yetkazishi, bo'lmasa uni temuriylar saltanatiga yuborishi va Temuriy qo'shinlar uni ota yurtiga yetkazib, taxtiga o'tqazishi bayon etilgandi.⁷² Maktub mazmunidan ko'rinib turibdiki, Fathxonni ajdodlari taxtiga o'tqazmoqchi, fikrimizcha

⁷⁰ O. Bo'riyev Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi; 243

⁷¹ Matlai sadayn va majmai Bahrayn, 129-b

⁷² O'sha asar, 178-b

Shohrux Mirzo bu bilan Temuriylar saltanatining qudratini Deva Raya II ga bildirib qo'ymoqchi. Elchilar Hirotda 1445-yil 8-apreliga qadar bo'lishdi. So'ng hukmdor ularni qaytishiga ruxsat beradi va ularning har biriga egar jabduqlik ot, dakalayi navro'ziy, 3 mingdan kepakiy dinor, ularning o'nta navkariga esa bittadan qabo, 400 dinordan pul, Ho'rmuzga yetib olishlarigacha ulufa va yom otlari belgilandi. Vijayanagarga elchilikka mavlono Nasrulloh Junobodiy tayin etiladi. U orqali Vijayanagar hukmdoriga sovg'a salom, tuhfalar berib yuboriladi. Biroq, ushbu elchilikning keyingi tafsilotlari haqida ma'lumotlar qayd qilinmagan.⁷³ Balki elchilar Vijayanagarga qadar yetib bormagandir, yetib borgan bo'lsa, ular haqida Hindistonning o'rta asrlar tarixiga oid asarlarda bilgiler qayd etilgan bo'lsa kerak. Balki, elchilar o'z missiyasini yakunlab Hirotda qaytib kelgan bo'lishida mumkin, biroq buyuk Shohruxning vafotidan so'ng boshlangan toju taxt kurashlari vaqtida ularga e'tibor qilinmagan bo'lishida mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Shohrux Mirzo mohir diplomat bo'lib, faol tashqi siyosat olib borgan. Uning hukmronligi yillarida Temuriylarning Hindiston yarim orolidagi mamlakatlar bilan aloqalari yanada kengayadi. Temuriylar saltanatining ta'sir doirasi yana ham kengayib endi, o'lkaning janubiy va sharqiy hududlarinida qamrab oladi. Ammo Shohrux Mirzoning olib borgan faol tashqi siyosati unchalik keng tahlil qilinmagan, uning shaxsi barobarida ichki va tashqi siyosati ham mahalliy manbalar qatorida qo'shni va diplomatik aloqalar olib borgan mamlakatlar tarixiy asarlari asosida chuqur va atroflicha tadqiq qilinsa xalqimiz tarixiga oid ko'pgina voqeiyliklardan xabardor bo'lar edik.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1 Abdurazzoq Samarqandiy,, Matlai sadayn va majmai bahrayn" I jild, 1405-1429-yil voqealari, Toshkent, O'zbekiston, 2008. 632-bet.

2 Abdurazzoq Samarqandiy,, Matlai sadayn va majmai bahrayn" II jild, 1429-1470-yil voqealari, Toshkent, O'zbekiston, 2008. 832-bet.

3 O'zbek diplomatiyasi tarixidan (tarixiy ocherklar va lavhalar), Toshkent-2003. 376-b

4 Poyon Ravshanov, Amir Temur sulolasi, Toshkent Yangi asr avlodi-2018. 656-b

5 Ziyodulla Muqimov Amir Temur hamda Temuriylar davlati va huquqi, Toshkent, Navro'z-2020, 292-b

6 Omonulla Bo'riyev Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi Mumtoz so'z -2017, 361-b

7 Temur va Ulug'bek davri tarixi Qomuslar bosh tahririyati-1996, 263-b

8 O'zbekiston hukmdorlari Farhod Sultonov, Farruh Bozorboyev, Toshkent 2007,

⁷³ O. Bo'riyev, Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi 244-b